



HUDUDLARDA KAMBAG'ALLIKNING OLDINI OLISHDA QISHLOQ XO'JALIGIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

S.Islomova

Buxoro Texnika universiteti

"Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi stajyor o'qituvchisi.

Qishloqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha muayyan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmining o'sishini ta'minlamoqda, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida sifat o'zgarishlarga olib keldi.

O'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlardan ko'zda tutilgan bosh maqsad qishloqda haqiqiy mulkdorlar sinfini, yer va mahsulotning haqiqiy egalarini shakllantirishdir. Qishloq joylarda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali qishloq xo'jalik korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish asosiy masalalardan hisoblanadi. Respublikada olib borilayotgan agrar siyosat natijasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini sug'urtalash, avanslash va to'lov munosabatlari takomillashtirilib bormoqda.

2024 yilda O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi joriy narxlarda 1454 573,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023 yilga nisbatan 6,5 % ga o'sdi. Sanoat tarmog'ining o'sishi 6,8 % ni tashkil etib, YaIM o'sishiga ijobiy hissasi 1,7 f.p.ni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining o'sishi 3,1 % ni tashkil etdi va YaIM o'sishiga ijobiy hissasi 0,6 f.p.ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmining o'sishi 8,8 % ni tashkil etdi. Qurilish tarmog'ining YaIM o'sishiga ijobiy hissasi 0,6 f.p.ni tashkil etdi⁵⁸.

Yangi agrar siyosatning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi tufayli O'zbekistonda qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotlarining o'sish sur'atlari barcha MDH mamlakatlaridagiga qaraganda ancha yuqoridir.

Jahon tajribasiga ko'ra, qishloq xo'jaligida kichik biznesni rivojlantirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi, balki mamlakatlarda amalga oshirilayotgan siyosiy dasturlarda ham o'z aksini topmoqda. Qishloq xo'jaligida kichik biznesni rivojlantirish jamiyat tarkibida o'rta qatlamning ulushini ortishi, shu bilan birga mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida kichik biznes kichik biznes AQSh, Germaniya, Xitoy, Fransiya, Yaponiya, Italiya kabi rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni barqarorlashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. «Xalqaro kichik biznes Kengashi (ICSB) ma'lumotlariga ko'ra, kichik biznes sub'ektlari barcha korxonalarning 90% dan ortig'ini, ish bilan band bo'lganlarning 60-70% ni, yalpi ichki mahsulotning 50%

⁵⁸ <https://stat.uz/uz/default/press-revizlar/50245-2024-yil>



ni tashkil etadi⁵⁹. Shuningdek, “jahon tajribasida kichik biznes davlatning ko‘magisiz juda sekin rivojlanayotganligi ham barchaga ma’lum”⁶⁰. Shunday ekan, jahonning deyarli barcha mamlakatlarida kichik biznesni boshqarish, aholi bandligini oshirish, tadbirkorlarga yaxshi shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O‘zbekistonda hozirgi kunda hududlarda kambag‘allikni qisqartirishda asosan, qishloq xo‘jaligida kichik biznesni rivojlantirishga e‘tibor berib kelinmoqda. Bu borada bir qancha huquqiy-me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvarida qabul qilingan “2022—2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida oxirgi ikki yarim yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ellikdan ortiq farmon va qarorlari qabul qilindi. Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko‘plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (Biznes-ombudsman) lavozimi joriy qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 23 sentabrdagi «Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida»gi PF-143-son Farmoniga muvofiq «Kambag‘allikdan farovonlik sari» dasturi qabul qilinganligi hamda ushbu dastur ijrosini tashkil qilish vazifasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga yuklatilgan.

Kambag‘allik dinamikasi va tarkibini tahlil qilish, oilalarni kambag‘allikdan chiqarish individual rejalarining ishlab chiqilishini tashkil etish va ijrosini muvofiqlashtirish, aholini kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni joylarga chiqqan holda o‘rganish hamda natijasi bo‘yicha «Kambag‘allikdan farovonlik sari» dasturini amalga oshirish bo‘yicha respublika komissiyasi faoliyat olib bormoqda. Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi faoliyatini uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, istiqbolli loyihalar bilan ishlash ko‘nikmasi va malakasini oshirib borishni doimiy tahlil qilish, eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish va baholash, faoliyatida aniqlangan tizimli muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilmoqda.

⁵⁹ https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/30_Ergashev.pdf

⁶⁰ Ильин И.Е. Малый бизнес в России: проблемы и перспективы // Банковское кредитование. – 2008. – № 2. С.153–156.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бобоев, А. Ч., & Базарова, М. С. (2019). Хорижий инвестицияларнинг жозибadorлигини ошириш. Интернаука, (22-3), 88-90.
2. Boboev, A. C., & Akramova, O. Q. (2023). Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirishda korxonalarning o'рни va ahamiyati. Science and Education, 4(2), 1537-1542.
3. OLIMOVICH, D. I., Baxtiyorovich, T. M., & Chorievich, B. A. (2020). Description of Technological Processes in Restaurant Services. JournalNX, 6(05), 248-252.
4. Chorievich, B. A. (2022). Issues of formation of entrepreneurial skills in graduates of higher education. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 6, 183-187.
5. Toshev, F. Z., & Qurbonova, X. B. (2024). IQLIM O'ZGARISHINING ATROF MUHITGA TA'SIRI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR, 1(1), 260-264.
6. Qurbonova, X. B. (2024). EKOLOGIK MUAMMOLARNING MOHIYATI, OQIBATLARI VA HAL ETISH YO'LLARI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR, 1(1), 455-458.
7. Qurbonova, X. B. (2024). OLIY TA'LIM VA PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARINING INTEGRATSIYALLASHUVI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR, 1(1), 230-235.
8. Xudoyberganovich, S. M., & Fattohovich, A. B. (2025). TASHKILOTDA KADRLAR SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH VA UNI AMALGA OSHIRISH STRATEGIYASI. ИКРО журнал, 14(01), 3-6.
9. Шамуратов, М., & Азимов, Б. (2025). TASHKILOTDA KADRLAR SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH VA UNI AMALGA OSHIRISH STRATEGIYASI. ИКРО журнал, 1(3).
10. Azimov, B. F., & Amonov, Z. M. (2025). Prospective directions for enhancing regional competitiveness through increased innovation activity. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(6), 1263-1266.
11. Tolibova, S., & Azimov, B. (2025). COMPETITIVE STRATEGIES AND EFFECTIVE WAYS TO UTILIZE THEM. Journal of Applied Science and Social Science, 1(4), 355-358.
12. Azimov, B. F. (2025). METHODOLOGICAL APPROACHES TO EVALUATING THE EFFICIENCY OF THE NATIONAL INNOVATION SYSTEM. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(6), 1960-1963.